

**JINOYAT-SUDLOV ISHLARIDA HIMOYA INSTITUTI:
MUAMMOLAR VA YECHIMLAR**

Komilov Is'hoq Xisimatulla o'g'li

“ONE BEST” advokatlik byurosi advokati

E-mail: xisimatullayevich@gmail.com

Annotatsiya: mazkur maqolada jinoyat ishi yurituvda himoyaga bo'lgan huquq, ularning kafolati haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, dastlabki tergovda (surishtiruvda) gumonlanuvchi, ayblanuvchining davlat tomonidan bepul himoya qilinishiga doir normalar tahlil qilinadi. Himoyachi ishtirok etishi shart bo'lgan holatlar, himoyaga bo'lgan huquqdan voz kechishning protsessual tartibi bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: himoyachi, jinoyat-sudlov ishlarini yuritish, ko'rsatuv berish majburiyati, taraflarning o'zaro tortishuvi, dalillar taqdim etish, shikoyat berish huquqi.

**ИНСТИТУТ ЗАЩИТЫ В УГОЛОВНОМ СУДЕБНОМ ДЕЛЕ:
ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ**

Комилов Исхок Хисматулла угли

Адвокат адвокатского бюро "ONE BEST"

E-mail: xisimatullayevich@gmail.com

Аннотация: в данной статье рассматривается право на защиту в уголовном судопроизводстве и их гарантии. Также при предварительном следствии (дознании) анализируются нормы о бесплатной государственной защите подозреваемого, обвиняемого. Описываются обстоятельства, при которых участие защитника обязательно, и процессуальный порядок отказа от права на защиту.

Ключевые слова: защитник, уголовное судопроизводство, обязанность давать показания, взаимный спор сторон, представление доказательств, право на подачу жалобы.

**INSTITUTE OF DEFENSE IN CRIMINAL COURT
PROCEEDINGS: PROBLEMS AND SOLUTIONS**

Kamilov Ishak Khismatulla ugli

Lawyer of the law firm "ONE BEST"

E-mail: xismatullayevich@gmail.com

Annotation: *this article examines the right to defense in criminal proceedings and their guarantees. Also, during the preliminary investigation (inquiry), the norms on free state protection of the suspect, accused are analyzed. The circumstances under which the participation of a defense attorney is mandatory and the procedural order for refusing the right to defense are described.*

Keywords: *defense counsel, criminal proceedings, testimony obligation, mutual dispute of the parties, presentation of evidence, right to file a complaint.*

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, mahkum va oqlangan shaxsning (bundan buyon matnda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi deb yuritiladi) himoya huquqi jinoyat-sudlov ishlarini yuritishda asos qilib olinuvchi prinsiplardan biri bo'lib, ish bo'yicha qonuniy, asoslantirilgan va adolatli qaror qabul qilinishini kafolatlaydi. Sud amaliyotini o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, surishtiruv, tergov organlari hamda sudlar gumon qilinuvchining, ayblanuvchining himoya huquqini asosan ta'minlab kelmoqdalar.

Shu bilan bir qatorda, ushbu huquqiy institut ish bo'yicha qonuniylikka rioya etish va haqiqatni aniqlashda juda muhim omil ekanligiga yetarli darajada e'tibor berilmayapti. Gumon qilinuvchining, ayblanuvchining himoya huquqini surishtiruv va dastlabki tergov jarayonida ham, sud muhokamasi borayotganda ham qo'pol tarzda buzish hollari barham topmagan [1].

Gumon qilinuvchining, ayblanuvchining himoya huquqi — yuzaga kelgan gumon, qo'yilgan aybni rad etish yoki javobgarlik va jazoni yumshatish uchun unga qonun bilan berilgan protsessual imkoniyatlar yig'indisidir.

Himoya huquqi jinoyat-sudlov ishlarini yuritishning barcha bosqichida ta'minlanadi.

Ish bo'yicha haqiqatni aniqlash uchun faqat Jinoyat-protsessual kodeksida belgilangan tartibda to'plangan, tekshirilgan va baholangan dalillardangina foydalanish mumkin. Protsessual qonun talablari buzilgan holda to'plangan dalillar ayblov asosiga qo'yilishi mumkin emas [2].

Qonunga binoan, sud protsessida taraflar dalillar taqdim etish, ularni tekshirishda qatnashish, iltimos bilan murojaat qilish, ishning to'g'ri hal etilishi, qonuniy va asoslantirilgan qaror chiqarilishi uchun ahamiyatga molik har qanday masala bo'yicha o'z fikrlarini bildirishda teng huquqlardan foydalanadilar. Jinoyat ishini yuritishga mas'ul davlat organlari va mansabdor shaxslarining harakatlari va qarorlari ustidan shikoyat gumon qilinuvchining, ayblanuvchining himoyachisi va qonuniy vakili tomonidan ham berilishi mumkin.

Shaxs JPK 221-moddasida ko'rsatilgan asoslarga ko'ra ushlangan hollarda, garchi qonunda bu haqda tegishli bayonnoma shaxs ichki ishlar organi yoki boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organga keltirilgandan so'ng rasmiylashtirilishi belgilangan bo'lsa-da, uning harakatlanish erkinligiga bo'lgan huquqi amalda cheklangan paytdan boshlab gumon qilinuvchi deb hisoblanadi. Aynan shu paytdan boshlab ushlab turilgan shaxs gumon qilinuvchiga berilgan barcha huquqlardan, shu jumladan, himoyachi olish, yaqin qarindoshlariga yoxud advokatiga telefon qilish yoki xabar yuborish, ko'rsatuv berishdan bosh tortish, shuningdek o'zi bergan ko'rsatuvlari jinoyat ishi bo'yicha unga qarshi dalil sifatida

ishlatilishi mumkinligini bilish huquqidan foydalanadi. Shu tufayli, bunday hollarda u guvoh sifatida so'roq qilinishi, jinoyat ishida gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilinganligi haqidagi qaror unga e'lon qilinmasdan hamda tegishli huquq va majburiyatlari tushuntirilmasdan turib, unga nisbatan tergov harakatlari olib borilishi mumkin emas [3].

Jinoyat-protsessual kodeksining gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga uning himoyachi olish, aynan nimada gumon qilinayotganligi yoki ayblanayotganligini, mahkumga esa, u qanday jinoyat sodir etganlikda aybdor deb topilganligini bilish huquqini kafolatlovchi 46, 48-moddalari talablariga qat'iy rioya qilinishi zarur.

Ish bo'yicha himoyachi sifatida qatnashishi mumkin bo'lgan shaxslar toifasi JPK 49-moddasining ikkinchi va uchinchi qismlarida belgilangan. Ular jumlasiga, xususan, advokatlar hamda gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yaqin qarindoshlaridan biri yoki qonuniy vakillari kiradi. Bunda shuni e'tiborga olish lozimki, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yaqin qarindoshi yoki qonuniy vakili ish bo'yicha himoyachi sifatida faqat advokat bilan birga qatnashishiga yo'l qo'yiladi. Qonunga binoan, belgilangan tartibda advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziya olgan va advokatlar tuzilmalarining: advokatlar hay'ati, advokatlik firmasi, byurosi a'zosi bo'lgan shaxslar advokat hisoblanadi [4].

Gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yaqin qarindoshlari deganda, uning ota-onasi, tug'ishgan va o'gay aka-ukasi va opa-singillari, eri(xotini), farzandlari (farzandlikka olinganlar), bobosi, buvisi, nevaralari, shuningdek, er(xotin)ining ota-onasi, tug'ishgan va o'gay aka-ukasi va opa-singillari nazarda tutiladi.

Advokatning ishda ishtirok etishiga u advokatlik guvohnomasini ko'rsatganidan va uning muayyan ishni yuritishga vakolatli ekanligini tasdiqlovchi ordeni taqdim etganidan so'ng yo'l qo'yiladi [5].

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining ishda himoyachi sifatida ishtirok etishga ruxsat berilgan yaqin qarindoshi yoki qonuniy vakiliga surishtiruv, dastlabki tergov organi, sud tomonidan qaror, ajrim berilib, unda himoyachining JPK 53-moddasida nazarda tutilgan huquq va majburiyatlari tushuntiriladi. Qaror (ajrim) surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud (sudya) tomonidan himoyachi sifatida tanlangan shaxsning qarindoshligi yoki vakillik vakolatini va shaxsini tasdiqlovchi hujjat taqdim etilgandan so'ng darhol chiqarilishi va unga berilishi lozim.

Himoyachi qonunga ko'ra, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki uning qonuniy vakili tomonidan, shuningdek, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining iltimosi yoki roziligi asosida boshqa shaxslar tomonidan taklif etiladi. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi ish bo'yicha bir necha himoyachi taklif etishi mumkin [6].

Bu o'rinda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi himoyachini erkin tanlash huquqiga ega. Surishtiruvchi, tergovchi, sud (sudya) ish bo'yicha tayinlov asosida davlat hisobidan himoyachi ishtirok etayotgan taqdirda ham gumon qilinuvchi, ayblanuvchi tomonidan taklif etilgan himoyachining ishda qatnashishiga monelik qilishga haqli emas.

Davlat hisobidan yuridik yordam olish uchun jismoniy shaxslar eksteritoriallik prinsipi asosida maxsus vakolatli davlat organiga og'zaki, yozma yoki elektron shaklda murojaat qiladi [7].

Jismoniy shaxslar davlat hisobidan yuridik yordam olish uchun quyidagilarni taqdim etadi:

- davlat hisobidan yuridik yordam olish to'g'risidagi ariza;
- davlat hisobidan yuridik yordam olish huquqiga ega bo'lgan jismoniy shaxsning pasportiga oid ma'lumotlar (identifikatsiyalovchi ID-karta);
- davlat hisobidan yuridik yordam olish to'g'risidagi ariza davlat hisobidan yuridik yordam olish huquqiga ega bo'lgan jismoniy shaxsning vakili tomonidan berilgan taqdirda — jismoniy shaxsning vakiliga berilgan ishonchnoma va (yoki) uning vakolatlarini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar yoxud qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda, davlat hisobidan yuridik yordam olish huquqiga ega bo'lgan jismoniy shaxs va uning vakili o'rtasidagi qarindoshlik munosabatlarini tasdiqlovchi hujjatlar;
- ariza ruhiy holati buzilgan, psixiatriya yordami ko'rsatilayotgan jismoniy shaxsning qonuniy vakili yoki psixiatriya muassasasi tomonidan berilgan taqdirda — psixiatriya yordami ko'rsatuvchi psixiatriya muassasasining jismoniy shaxsga psixiatriya yordami ko'rsatilayotganligini tasdiqlovchi ma'lumotnomasi;
- ariza o'z huquqlari buzilgan, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi buzilganligi munosabati bilan sudga murojaat qilgan jismoniy shaxs tomonidan berilgan taqdirda — xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi buzilganligi bilan bog'liq ish sudda ko'rib chiqilayotganligi to'g'risidagi ma'lumotnomadan iborat bo'lishi lozim.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, O'zbekistonning demokratik o'zgarishlarga sodiqligini namoyish qilish, yurtimizda kechayotgan ulkan o'zgarishlar va yangilanishlar davrida avvalo inson huquqlarini himoya qilish va rag'batlantirish birlamchi vazifalardan sanaladi. O'zbekistonning eng ulug' maqsadi, avvalo, xalqimiz manfaatlari ko'zlangan islohotlarni amalga oshirishga

qaratilgani bilan e'tiborlidir. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va Qonunlar bilan himoya qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Tulaganova G.Z., Bazarova D.B., Uralov S.S., Maxmudov S.A. "Jinoyat-protsessual huquqi" fanidan o'quv qo'llanma.- Toshkent: TDYU nashriyoti.. 2021 y.-342 bet.
2. Jinoyat-protsessual huquqi (Maxsus qism). Darslik. Mualliflar jamoasi // – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2017. – 520 bet.
3. Jinoyat-protsessual huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2024-y. – 648 bet. (M.X.Rustamboyevning umumiy tahriri ostida).
4. Уралов, С., & Утаров, К. (2025). ЖИНОЯТ ПРОЦЕССИНИНГ СУДГАЧА БЎЛГАН БОСҚИЧИДА РАҚАМЛИ ИШ ЮРИТИШ. Modern Science and Research, 4(2), 159–167. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/65334>.
5. Уралов, С. «Исбот қилиш предмети ва доираси». Цифровизация деятельности судов: текущие и перспективные задачи, т. 1, вып. 1, январь 2022 г., сс. 142-7, <https://inlibrary.uz/index.php/digitalization-activity-courts/article/view/16610>.
6. Uralov S. Specific aspects of proof //TSUL Legal Report International electronic scientific journal. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 96-102.
7. Suyunova D. Preparation of the Case for Trial //Central Asian Journal of Social Sciences and History. – 2023. – Т. 4. – №. 6. – С. 182-188.